ámeliy hám teoriyalıq kámilligi aymaqqa muwapıq tárizde emes, marksistlik ideologiya jónelisine tán ráwishte soz etken.

Nátiyjede ótmish miyraslarımız benen túp qoljazbalardan, tolıq tekstlerden emes, ǵalabalıq basılımlar tiykarında tanısqan kópshilik joqarı maǵlıwmatlı qánigeler de jalǵız ideologiya ruxsat bergen «haqıyqatlar»dan basqa haqıyqatlar bar ekenliginen derlik biyxabar tárbiya alǵan. Búgin ziyalılarımızdıń kópshiligi mánáwiy miyrastı tuwrı ańlap jetiwge qıynalıp atırǵanlıǵınıń sebeplerinen biri de usınnan.

Bir insanǵa óz milliy mánáwiyatın tolıq ańlap jetiw ushın Allah júz jıl ómir berse de kemlik qıladı. Hár biri millet, hár bir xalıq óz turmıs tárizin, keleshegin ájdadlarınıń tariyxıy tájiriybesine tiykarlanıp quradı, jónsiz pishimler tiykarında rawajlana almaydı. Mıń jıllar dawamında jer júzindegi túrli aymaqlarda jasaǵan xalıqlardıń óz-ara siyasiy, mádeniy, sociallıq baylanısları házirgidey jaqın bolǵan emes.

Ásirler dawamında jer júzinde túrli mádeniy aymaqlar qáliplesken. Evropa, Aziya xalıqlarınıń aymaqlıq mádeniyatı hám basqa bir qatar aymaqlar mádeniyatı-bulardıń hár biri basqasınan parıq qılıwshı bir qatar diniy isenim, filosofiyalıq mektepler, kórkem-óner hám ádebiyat, úrp-ádet hám dástúrlerdiń ózine tán uyǵın bir sistemasın payda etip, insaniyattıń bunday biybaha múlkin, mánáwiy ǵáziynelerin biyparıqlıq penen bir-birine qarıstırıp jiberiwimiz ulıwma jaqsı nátiyjege alıp kelmeydi.

Túrli milletler mánáwiyatınıń ózine tánligi ayqulaqtaǵı túrli reńlerge uqsas bolıp, olar birin – biri tolıqtıradı, bayıtadı, biraq biykár etpeydi.

Ulıwma, insanıylıq mánáwiyattı yaǵnıy qádiriyatlardı belgili bir xalıq óz aldına jaratpaydı, bul mánáwiy qádiriyatlardı hár bir xalıq, hár bir elat óz tariyxıy tájiriybesi menen áste-aqırın qáliplestirip baradı hám óz-ara túrli múnásibetler processinde elatlar, milletler bir-birin túsinip, óz-ara mánáwiy qádiriyatlarındaǵı ulıwmalıq táreplerin ańlap baradı.

Xalqımızdıń házirgi milliy mánáwiyatı hám qádiriyatları ótmish milliy mánáwiyatınıń dawamı bolıp, olarǵa doslıq, ortaqlıq, miymandoslıq, adamgershilik, insanpárwarlıq, isbilermenlik, pazıyletlilik, saqıylıq, keń peyillik, jámáát ishinde ózin tuta biliwlik, ana-jurt hám xalqına muxabbatlılıq, rasgóylik, ata-ana hám úlkenlerdi húrmet qılıw, miynetsúygishlik hám basqa milliy, mánáwiy, ádep-ikramlılıq páziyletler kiredi.

Zulımlıq sistema dáwirinde basqa milletler qatarı xalqımızdıń da aziz tuyǵıları kemsitilgen edi. Qullıq, qaramlıq qamshısı járdeminde olardıń barlıǵın sovet xalqı degen bir qálipke kiriwge, yaǵnıy óz tili, dini hám isenimlerinen waz keshiwge májbúr qılınar edi. Jalǵan uranlar yamasa jalǵan wádeler menen sırttan hámme-hámmeni birlikke, awızbirshilikke sharlaǵan bolıp, biraq, mánqurtlıq jolına májbúrler edi.

Ózbekstan óz azatlıǵın qolǵa kiritkennen keyin ǵana onıń bawırındaǵı hár bir puxara óz tili, dini hám isenimleri menen ózin bir millet wakili, ǵárezsiz insan sıpatında seze basladı. Sonıń ushın da, mamleketimizde jasap atırǵan túrli millet wákilleri áne usı ruwxıy pútinlikke hám sonıń menen birge ulıwma ruwxıy hámmege birdey jol ashıp bergeni ushın da mámleketimiz milliy siyasatın bir awızdan qollap-quwatlamaqta hám erteńgi kúnge úlken isenim menen jasamaqta.

Endilikte olar Ózbekstan xalqı degen muqaddes at ishinen ózin, óz maqsetlerin, shańaraǵın, perzentleriniń keleshegin de kóz aldına anıq keltire basladı.

Millet endi ǵana ayaqqa turǵan hám milliy mámleketshilik payda bolıp atırǵan basqıshtan milletti birlestiriw, uyǵınlastırıw wazıypası turadı. Milletshilik mámleket hám millet qáwipsizligine, regionallıq hám keń kólemdegi qáwipsizlikke, kúshli qáwipke de aylanıp ketiwi múmkin. Milletshilik Ózbekstan hám Oraylıq Aziya regionında milletlerarалıq baylanıslarǵa qáwip salıwı itimaldan jıraq emes. Ol Oraylıq Aziyadaǵı respublikalardıń aymaqlıq – administrativlik shegaraların payda etiwde Rossiya imperiyası júrgizgen hám Sovet húkimetli dawamlaǵan siyasat aqıbetlerine barıp tireliwin umıtpaw kerek. Anıq maqsetke qaratılǵan migraciya siyasatı Oraylıq Aziya regionı xalqınıń polietnikalıq quramı taǵı da hár qıylı bolıwına alıp keldi.

Mádeniy – aǵartıwshılıq tarawında Batıs hám Shıǵıstıń ózine tán kelbeti bar ekenligin kóp oyshıllar atap ótken. Máselen, Ibn Sino óziniń «Shıǵıs filosofiyası» shıǵarmasında adımlardı «batısshılar» hám «shıǵısshılar» ǵa ajıratıp, bazı adamlardıń filosofiyalıq kózqaraslarında grek filosofiyasına jabısıp alıwın atap ótken. Ullı hind oyshılı Sevami Vivekanada: «Evropa hawazı - siyasat hawazı hám bul boyınsha onıń ustazı áyyemgi Greciya» - deydi. Shıǵıs hawazı – ruwxıyat hám mánáwiyat hawazı - barlıq payǵambarlardıń pútkil ómiri Ruwxtı úgit-násiyatlawǵa qaratılǵan.

Áyyemgi Shıǵıs degende Evropa kóbirek baylanısta bolǵan Mısır, Ossuriya, Bobil hám Batıs Aziya túsiniledi hám tek solardıń tariyxın úyreniw menen sheklenedi. Insaniyattıń huqıqıy dúnyalıq mádeniyatı Batıs civilizaciyası hám Shıǵıs mánáwiyatınıń qosılıwı menen jaratılǵan.

Demek, joqarıdaǵılardan kórinip turǵanınday, Batıs hám Shıǵıs ózine jarasa rawajlanıw jolı, salt-dástúrleri turmıs sharayatı bar. Házirgi dáwirde bul eki álemdi bir-birine qarama-qarsı qoyıw emes, al, bir-biriniń jaqsı táreplerinen óz ara paydalanıwdı zaman talap etpekte. «Batıs áleminde bolsa adamlardıń turmıs tárizi jámáátshilikke qaraǵanda individualizm, jeke máp principleri ústinlik etiwin kóriw múmkin. Bul da belgili bir obyektiv tariyxıy faktorlar tiykarında payda bolǵan waqıya bolıp, onı da biykarlap bolmaydı.

**Ádebiyatlar**


1. Karimov I. Yuksak mánaviyat - engilmas kuch. -T.: «Mánaviyat».
2. Bazarbaev J. Milliy ideya - biziń ideyamız. -N.: 2003.
3. Musurmonova O. Mánaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. –Toshkent: 1996.
4. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). –Toshkent: «Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti». 2004.



**REZYUME.** Maqolada Sharq donishmandlarining asarlarida milliy g'oyaviy tasvirlarning qadriyat masalalari bilan o'zaro aloqadorligi ilmiy-nazariy jihatdan tasvirlangan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматривается с научно-теоретической точки зрения взаимосвязь национальных идеологических образов с проблемами ценности в творчестве восточных гениев.

**SUMMARY.** The article examines the relationship of national ideological images from a scientific and theoretical point of view with the problems of value in the work of oriental geniuses.


## BUXORO AMIRLIGIDAGI AYRIM ETNIK GURUHLARNING JAMIYATNING TURLI SOHALARIDA TUTGAN O‘RNI


**J.N.Xakimov** – *assistent o‘qituvchi*

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali*



**Tayanch so‘zlar:** Buxoro, yahudiy, tabobat, Meyendorf, etnik guruhlar, attorlik, jarroh, tizim.

**Ключевые слова**: Бухара, еврей, медицина, Мейендорф, национальные группы, адвокатура, хирург, система.

**Key words:** Bukhara, Jew, medicine, Meyendorff, national groups, attorry, surgeon, system


Buxoro aholisi ko‘p millatli bo‘lib, uning tarkibida yahudiy, turkman, fors, eroniy, afg‘on va boshqa xalqlar yashagan. Buxoro amirligida yashagan turli etnik guruhlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining deyarli barcha so-

halarida ishtirok etganlar. Bular qatoriga tibbiyot, hunarmandchilik, savdo-sotiq, boshqaruv tizimi va boshqa sohalar kiradi. Tadqiqotda asosan, ular jamiyatga qanchalik foyda keltirilganligi, qaysi sohalarda faol bo‘laganliklari, shu bilan bir qatorda, ularning boshqaruv tizimida huquqiy asoslariga e’tibor qaratilganligi yoritilgan. Bularni o‘rganishda xorijiy va etnik adabiyotlarni tahlil qilgan holda o‘rganildi. Buxoro amirligida tibbiyot sohasi, ya’ni o‘sha davrda keng tarqalgan an’anaviy tabiblik sohasidan boshlaydigan bo‘lsak, bu davrda aholining aksariyat qismi tabiblar xizmatidan foydalanib kelgan. Tabobatning sir-sinoatlarini chuqur egallagan bu kasb egalari o‘z faoliyatida tibbiy asarlar va ajdodlarining ko‘p asrlik tajribasiga tayangan. Tabiblar chechak va sariq kasalligiga chalingan bemorlarni qon chiqarib yuborish yo‘li orqali davolagan. Buxoroga kelgan sayyohlardan biri: “Buxoroda tabiblar juda ko‘p, dorilar esa undan ham ko‘p”-deb ta’kidlaydi. XIX asrning 20-yillarida Buxoroda bo‘lgan E.K.Meyendorf barcha musulmon xalqlari singari buxoroliklar ham tabobatga katta hurmat bilan qaraydilar... Buxorolik yaxshi tabib kasalning tomirini ushlab, unga hech qanday savol bermagan holda uning kasalini aniqlashi lozim”[1:294-298] - deb ko‘rsatgan edi. Shu bilan bir qatorda boshqa millat vakillari boshqaruv tizimida ham muhim rol o‘ynagan. Qo‘shin boshliqlari sifatida faoliyat ko‘rsatishgan.

Manbalarda Buxoroda tarqalgan kasalliklar, aholining tibbiy holati va zamonaviy tibbiyoti, kasallik tarqalish manbaalari, turli mikrob va bakteriyalar, suv va havodan o‘tadigan kasalliklar, ichimlik suvining xumda uzoq vaqt saqlanishi natijasida ularning ifloslanishi xususida ma’lumotlar keltiriladi. Bemorlarni davolashda tabiblar bemor organizmining mijozini inobatga olgan. Mijoz:issiq, sovuq, ho‘l va quruqqa ajratilgan. Agar bemor issiq mijoz bo‘lsa, unga sovuqlik xarakteriga ega dorilar, sovuq mijozlarga issiqlik dorilar berilgan. Davolanishning bunday uslubi – parhez deb atalgan.

Tabiblar o‘z faoliyatlarida turli dori vositalaridan foydalanib, ularning soni 500 nafardan 1000 nafargacha bo‘lgan. Dori-darmonlar bilan savdo qilinuvchi dkonda bo‘lgan E.A.Eversman Buxoroda dorilarning mingga yaqin turi borligini aniqlagan. Demak, tahlillar shuni krsatadiki, o‘rta Osiyolik tabiblarming yillar davomida shakllanib, yangi an’analar bilan boyib borgan dorivor vositalar bilan bemorlarni davolash san’ati XX asr boshlarida ham davom ettirilgan va bu bilan yevropaliklarni hayron qoldirganlar [2:59-60].

Tabiblar tavsiya etgan dorilar turli simliklar, tog‘ minerallari va boshqa mahalliy xom ashyodan tayyorlangan. Dorilarni attorlik do‘konlaridan xarid qilish mumkin bo‘lgan. Bozorda attorlar dori-darmonlar bilan savdo qilganlar. Attorlar bemorlarning o‘z salomatliklari to‘g‘risidagi shikoyatlariga qarab, dori tanlab berganlar.

E.K.Meyendorfning fikricha, garchi shifokorlar ma’lum darajada terapevtik vositalarning o‘ziga xos harakatlaridan xabardor bo‘lishsa-da, ular bu ma’lumotdan kamdan kam foydalanganlar. Ularning jarrohlik bilimlari deyarli kam bo‘lgan, qon ketishini to‘xtatishni bilishgan. Boshqa tomondan, meni bu yerda o‘tkazilgan buxorolik shifokorlarni jarrohligi hayratda qoldirgan. Ular tomir urishiga katta e’tibor berishgan va garchi ularning orasida bu haqida zarracha tasavvurga ega bo‘lgan kishi bo‘lmasada, ular o‘zini haqiqiy shifokor bilib har qanday kasallikni, yurak urushidan ajratishni bilishgan”[3:1378].

Buxoroda har xil turdagi dorivor moddalar mavjud, ba’zi shifokorlarning fikriga ko‘ra mingdan oshiq miqdorda, boshqalarning aytishicha, ko‘ra ularning soni 500 dan oshadi va bu haqiqatdan ham shunday bo‘lgan. “Men bir paytlar dori-darmon sotadigan do‘konda edim va menimcha, oxirgi raqam mubolag‘a qilinmagan. Buxoroliklar eng ko‘p dori-darmonlarni hindlardan olganlar, faqat ular Samarqand yaqinidagi tog’lardan olib keladigan yoki bog‘larda o‘stiradigan o‘tlar va gullardan tashqari, bu turli xil urug‘larga ham tegishli bo‘lgan” [3:139].

Bu davrda aholining aksariyat qismi tabiblar xizmatidan foydalanib kelgan. Tabobatning sir-sinoatlarini chuqur egallagan bu kasb egalari o‘z faoliyatida tibbiy asarlar va ajdodlarining ko‘p asrlik tajribasiga tayandi. Tabiblar chechak va sariq kasalligiga chalingan bemorlarni qon chiqarib yuborish yo‘li orqali davolagan. Buxoroga kelgan sayyohlardan biri “Buxoroda tabiblar juda ko‘p, dorilar esa undan ham ko‘p”-deb ta’kidlaydi. XIX asrning 20-yillarida Buxoroda bo‘lgan E.K.Meyendorf barcha musulmon xalqlari singari buxoroliklar ham tabobatga katta hurmat bilan qaraydilar... Buxorolik yaxshi tabib kasalning tomirini ushlab, unga hech qanday savol bermagan holda uning kasalini aniqlashi lozim”-deb krsatgan edi.

Xalq tabiblari tabobatning turli sohalari bo‘yicha ixtisoslashgan bo‘lib, jarrohlar – yara-chaqalarni davolaganlar, Zullikchilar – inson tanasidagi harom deb hisoblangan qonni o‘srish uchun zuluk qo‘yganlar, siniqchilar – singan suyaklarni davolaganlar, guligirlar – tomoq va halqumdagi g‘ayritabiiy jismlarini olib tashlasalar, doyalar – ayollarni tug‘dirish bilan shug‘ullanganlar. Ammo tabiblar orasida savodlilari kam bo‘lgan. Shu bois aholi davolanish uchun emchi, duoxon, parixon, folbin, dorugar, azayimxonlarga tez-tez murojaat qilgan. Bunday hollarda davolashda kasalliklarining kelib chiqish sabablari to‘g‘ri aniqlanmay, g‘ayritabiiy kuchlarning faoliyatiga bog‘lanib ko‘proq davolashning diniy- sehriy usullaridan foydalanilgan.

Amirlik ijtimoiy hayotida aholi qatlamlari ishtiroki bo‘yicha ma’lumotlar A.Vamberi asarlarida ham uchraydi. O‘z sayohati davomida Buxoro amirligining ijtimoiy tuzumi, boshqaruv tizimi, aholisi to‘g‘risida qiziqarli ma’lumotlar bergan A.Vamberi ma’lumotlariga ko‘ra, hatto boshqaruv tizimida ham turli etnik guruhlarni, xususan forslarni yuqori amaldorlik mansablarini egallaganligini ta’kidlagan. Uning aytishicha, Amir Muzaffarning qo‘shin boshliqlari safida 5 ta fors kishisi bo‘lgan [4:285].

Eroniy guruhlarga mansub aholi qatlamining Buxoro amirligiga kelib o‘rnashishining ikkinchi katta bosqichi Amir Shohmurodning (1785-1800) Marvga qo‘shin tortishi va uni vayron qilinishi voqealari bilan bog’liq. 1789-1790-yillarida Amir Marvga qo‘shin tortib, qimmatbaho o‘ljalar bilan birga, (ba’zi manbalarda 100 ming), shia musulmonlarning Buxoro va Samarqandga ko‘chirib keladi. Ana shu Marvdan ko‘chirib kelingan aholi biz o‘rganayotgan xalq bo‘lib, bu xalqqa, “Marviy” deb berilgan [5:23]. Samarqandga ko‘chirib keltirilgan eroniylar asosan Bibixonim madrasasi bilan Registonning tillakori madrsasi o‘rtasida, chorraha atroflari, Tepaqo‘rg‘on (hozirgi viloyat hokimligi hududi) ga yaqin joylarda yashagan.

Shu xalq to‘grisida A.Y Grebenkin shunday yozadi: “Ular yaxshi dehqon, yaxshi jangchi va yaxshi hunarmand edilar, shuning uchun ham Shohmurod ularni qulga aylatirmagan, balki ularni turli hududlarga tarqatib, yaxshi-yaxshi unumli yerlarni berib, dehqonchilik qilishlari uchun shart-sharoit yaratib berdi” [5:24]. Mana shundan ham ko‘rinib turibdiki, ular juda mehnatkash xalq bo‘lgan. Saidrizo Alizoda o‘zining “Samarqand eroniylari” maqolasida “Samarqand eroniylari aslida Bayramalixoning sarbozlari bo‘lgan (sarboz-askar va zobitlar)” deb yozganini eslatib o‘tgan [5:24].

Tarixshunos olim A.Byorns o‘zining Buxoroga bag‘ishlangan, mashhur asarida shunday yozadi: “… U o‘zining hamrohlari bilan Buxorodagi bir qishloqda dam olish uchun to‘xtaganida, shu qishloqdagi asirlarning ko‘pchiligi forslar” ekanligini ta’kidlaydi, va ulardan dehqonchilik qilishda foydalanganliklarini ta’kidlaydi [7:483].

Shuningdek, yana bir boshqa tarixchi olim P.P.Ivanov o‘zining O‘rta Osiyo tarixi haqida yozgan asarida shunday deydi: “Buxoro shahri har doim odamlar bilan gavjum

bo'lgan. Bu yerda rossiyalik savdogarlarni, qo'qonliklarni, shuningdek, forslarni uchratish mumkin edi. Har yili Buxoroga 5 ta yoki 4ta karvon Erondan kelar edi" [5:24] Yoki Tumanovich o'zining B.B.Bartold haqida yozgan asarida: "Samarqand va Buxoroda yashovchi aholi orasida eroniy millatiga mansub xalqni ko'p uchratish mumkin edi. Ular tojiklarga yaqin turadilar. Lekin ularning tili va diniy mazhabi biroz boshaqacha, ya'ni eroniylar shialar, tojiklar sunniylar deb ta'kidlaydi" [5:24].

Amudaryodan tashqarida ham, undan oldin ham yashab, Buxoro hukmronligini tan olgan turli xil ko'chmanchi qabilalardan bo'lgan turkmanlar, aytilganidek, xon umumiy majburiyat e'lon qilgan taqdirda 18 ming kishi zaxirasida bo'lishi kerak. Ular o'z mablag'lari hisobidan ta'minlangan va jihozlangan. Shunday qilib, Buxoroning kuchini 36 mingdan ortiq odamga baholash mumkin. Ammo bu raqam haqiqiydan ko'ra ko'proq nominaldir. Turkmanlarning deyarli hammasi o'z otlariga ega, ammo qurollari o'zbeklarga qaraganda ancha kam bo'lgan [8:43].

Yahudiylar Buxoroni qonun qoidalariga rioya qilgan holda hayot kechirgan. Diniy masalalarga amal qilgan. Bu haqida Emelyanko ham quyidagi fikrlarni keltirgan. Yahudiylar tomonidan diniy ko'rsatmalarga amal qilish amir hukumati tomonidan qo'llab-quvvatlangan va aholi tomonidan ma'qullangan, ular uchun din qonunlarining daxlsizligi, davlat tuzumini qo'llab-quvvatlash kerak bo'lgan va ularga rioya qilishgan. Yahudiylar ilgari musulmon dunyosida Buxoro yahudiylari yagona jamoa bo'lib yashashgan. Ularning har bir a'zosi, yashash joyi va xonliklaridan qat'i nazar, teng huquqli pozitsiyada bo'lgan. Musulmon jamiyatida bir marotaba qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va munosabatlarning buzilishi, kim bo'lishidan qat'i nazar, islom asoslari va qonunlariga tajovuz sifatida qaralgan va jazolangan. Davlat tuzilmalari bilan barcha aloqalar jamiyat rahbarlari tomonidan amalga oshirilgan va oddiy a'zolar faqat ular bilan muomalada bo'lganlar [6:17-18].

Shunday qilib, Buxoro amirligi hududida yashagan xalqlarning yuqorida tabiblik va davlat boshqaruv sohasida ham o'z o'rniga ega bo'lganini ko'rish mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, Buxoro amirlari ham ularga ishongan va boshqa millat vakillari bo'lishiga qaramay sadoqat bilan xizmat qilgan. Ta'kidlash joizki, mazkur etnik guruhlar ham amirlik aholisi tarkibida uning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarida o'ziga xos rol o'ynagan. Jumladan, ular ham boshqaruv tizimidan tortib, ixtisoslashgan hunarmandchilik sohalari, savdo, tovar-pul munosabatlariga o'zlarining munosib hissalarini qo'shib borganlar. O'zbekiston xalqi mentalitetida etnotolerantlik xususiyati chuqur singgan qadriyat bo'lib, bu uzoq mafkuraviy bosqichlarni bosib o'tgan. Shunday tarixiy davrlardan biri so'nggi o'rta asrlar davri hisoblanadi. Xususan, ko'p etnosli Buxoro amirligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotida milliy guruhlar o'ziga xos o'rin egallagan va amirlikda etnoslararo munosabatlar ham hamjihatlik asosida yo'lga qo'yilgan edi.

**Adabiyotlar**


1. Orziyev M. XX asr boshlarida Buxoro matbuotida sog'liqni saqlash muammolarining ask etishi // XIX asr – XXasr boshlarida Markaziy Osiyoda intellektual meros: an'analar va innovatsiyalar. Ilmiy to'plam. –Toshkent: 2018.
2. Karomov R.H. Buxoro tibbiyotining Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davridagi tarixi. // QarDU xabarlari. –Qarshi: 2021.
3. Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару.
4. Normurodova G. Buxoro amirigida sharq etnik guruhlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'rni // "Buyuk ipak yo'lida umuminsoniy va etnik qadriyatlar: til, ta'lim va madaniyat" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Samarqand-Shanxay: 2016.
5. Alieva F., Sharipov S. Vatan yagonadir – vatan bittadir. 2018.
6. Емельяненко Т.Г. Бухарские евреи: судьба диаспоры этнографическое обозрение № 5, 2009.
7. Борнс А. Путешествие в Бухару. -Т.:1848..
8. Записки о Бухарском ханстве. Отчеты П.И.Демезона и И.В.Виткевича.



**REZYUME.** Ushbu maqolada Buxoro amirligida yashagan turli etnik guruhlar, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining deyarli barcha sohalarida ishtirok etganliklari va ularning bu yerda yashab savdo-sotiq bilan shug'ullanishiga qonuniy ravishda ruxsat etilganligi keltirilgan. Xonliklarda faoliyat yuritayotgan etnik guruhlar jamiyatning barcha sohalarida muhim rol o'ynagan. Bularning ichida Buxoro amirligi alohida ajralib turadi. Bu amirlik vakillari tibbiyot va boshqaruv tizimida qatnashganliklarini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

**РЕЗЮМЕ**. В данной статье отмечается, что в Бухарском эмирате проживали разные этнические группы, участвовали практически во всех сферах социально-экономической жизни общества и имели законное право жить и торговать здесь. Этнические группы, действовавшие в ханствах, играли важную роль во всех сферах жизни общества. Среди них выделяется Бухарский эмират. Мы можем ясно видеть, что представители этого эмирата участвовали в медицинской и административной системе.

**SUMMARY.** This article is mentioned that different national groups that lived in Bukhara Emirate participated in almost all spheres of social and economic life of the society and that they were legally allowed to live and trade here. National groups operating in khanates play an important role in all spheres of society. Among them, Bukhara Emirate stands out. We can clearly see that the representatives of this nation participated in the medical and administrative system.


## ҚУБЛА-ШЫҒЫС ҮСТИРТ АЙМАҒЫНДАҒЫ ТАРИЙХЫЙ ЖЕР-СУЎ АТАМАЛАРЫ ҲАҚҚЫНДА


**Е.Е.Қанаатов –** *докторант*
*Әжинияз атындағы Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институты*
**С.С.Шамшаддинова –** *ассистент оқытыўшы*
*Бердақ атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик университети*



**Таянч сўзлар:** тарихий топонимлар, Жанубий-шарқий Устюрт, этимология, лексика-семантик маъно, Адаққала.

**Ключевые слова:** исторические топонимы, Юго-Восточный Устюрт, этиология, лексика-семантическое значение, Адаккала.

**Key words:** historical toponyms, South-Eastern Ustyurt, etiology, vocabulary-semantic meaning, Adakkala.


Ҳәр бир атаманың өз тарийхы, пайда болыў себеплери бар. Дәрья, суў, қудық, булақ, көл, теңиз атларын (гидронимлерди), таў, сай, жыралар, тоғай, жайлаў атамаларын (оронимлерди), халық жасайтуғын мәканлардың атларын (ойконимлерди) ҳәр тәреплеме изертлеп, атамаларының себебин, тарийхый мәнисин анықлаў илимий изертлеўлерди талап етеди. Белгили бир аймақтың ономастикалық атамаларына қарап сол аймақта мәкан еткен әўладтың тарийхы туўралы, турмыс тәризи ҳаққында, ойлаў-пикирлеў дүньясы жөнинде мәлим бир жуўмақ жасаўға имканият жаратылады.

Топонимлердиң лексика-семантикалық топарларын анықластырғанда географиялық атамалардан халықтың басынан кешкен ҳәрқыйлы ўақыяларды, олардың мәдений, руўхый турмысынан хабар беретуғын фактлерди көплеп гезлестириўге болады. Биз сөз етпекши болып атырған Қубла Үстирт топонимлери: 1) қоршаған орталықтың физика-географиялық сыпатын көрсететуғын топонимлер; 2) адамлардың хожалық, турмыслық ис-ҳәрекетлери ҳәм жәмийетлик қатнасларын көрсететуғын топонимлер; 3) тарийхта жасап өткен руў-қәўим, тайпа-халықлардың турмысы менен яки қандай да бир